

**HAR XIL TURDAGI TISH CHO'TKALARINING
SAMARADORLIGINI KLINIK JIHATDAN TAQQOSLASH**

Farangis Abdurahimova,

Doston Nig'monov,

Shalola Azizova

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti

Mavzu dolzarbliği

Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi – bu tish kasalliklarining oldini olishning eng asosiy va muhim qismidir. Aholi orasida tish va og'iz bo'shlig'i salomatligini ta'minlash uchun to'g'ri tish cho'tkasi tanlash va undan foydalanishning ahamiyati juda katta. Bugungi kunda turli xil tish cho'tkalari mavjud bo'lib, ular samaradorligi va qulaylik darajasi bo'yicha farqlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda tish cho'tkalarining o'ziga xos xususiyatlari, tish yuvish usullari va davriyligi, shuningdek, tish cho'tkalari samaradorligini baholashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Masalan, Yoshino Kaneyasu (2024) tomonidan o'tkazilgan izlanishda tish cho'tkalarini almashtirish muddatlari va tish yuvish usullari o'rganilgan. Ushbu tadqiqot davomida bolalarda tish cho'tkasi samaradorligini o'rganish maqsadida to'rt hafta davomida kuzatuvlar olib borilgan. Natijada tish cho'tkasini vaqtida almashtirish zarurligi va eskirgan cho'tkalarning mikroorganizmlar ko'payishiga olib kelishi aniqlangan.

Shuningdek, Emyli Peralta (2024) tomonidan bolalarning stomatolog tavsiyalariga amal qilish darajasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotda 3-5 yosh oralig'idagi bolalarning gigiyenik odatlari va ota-onalarining ta'siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot tish gigiyenasida ota-onalarning roli muhim ekanini ko'rsatdi.

Smita Patil va Prashant Patil (2014) o'tkazgan izlanishda esa 6-8 yoshdagи bolalar orasida turli tish yuvish usullari qiyoslangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, to'g'ri o'rgatilgan yondashuv gigiyenani sezilarli darajada yaxshilaydi.

Bundan tashqari, Shreya Kolvenkar (2022) qo'lda ishslash qobiliyati

cheklangan bemorlar uchun mo'ljallangan tish cho'tkalarining unumdorligini tadqiq qilgan. Ushbu izlanishda qo'lda ishlatiladigan tish cho'tkalari va avtomat tish cho'tkalari samaradorligi solishtirilgan bo'lib, avtomat cho'tkalarning bemorlar uchun qulay va samaraliroq ekani aniqlangan.

Tish cho'tkalarining sifati va to'g'ri foydalanilishi bemorlarning tish kasalliklari, ayniqsa, kariyes va milk yallig'lanishining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan avtomat tish cho'tkalari og'iz gigiyenasini saqlashni soddalashtirsada, ularning qo'lda ishlatiladigan tish cho'tkalariga nisbatan samaradorligini klinik jihatdan tahlil qilish zarur.

Tish cho'tkalarining sifatini belgilashda turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlardagi odamlarning ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Shu sababli, ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar stomatologlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, aholining og'iz gigiyenasiga bo'lgan e'tiborining pastligi ko'plab stomatologik muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, noto'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri ishlatilgan tish cho'tkalari sababli milk kasalliklari, kariyes va tish yo'qotish holatlari keng tarqalgan. Shu bois, turli xil tish cho'tkalarining samaradorligini aniqlash va ularni tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda stomatologik amaliyotda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir bemorning og'iz bo'shlig'i holati va gigiyenaga bo'lgan ehtiyojlari turlicha bo'lib, buni hisobga olgan holda eng samarali tish cho'tkalarini aniqlash talab etiladi. Ushbu mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar stomatologik xizmatlar sifatini oshirish va aholining umumiyligi sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlarda turli xil yo'naliishlarda o'tkazilgan izlanishlar bo'lsada, qaysi turdag'i tish cho'tkalari yuqori samaradorlikka egaligi haqidagi ma'lumotlar hanuz yetarlicha to'liq emas.

Tadqiqot maqsadi

Stomatologik kasalliklarning oldini olishda har xil turdag'i tish cho'tkalarining

klinik samaradorligini baholash va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotni Toshkent Davlat Stomatologiya Institutining 40 nafar 2-kurs talabalari (20-21 yosh) ishtirokida o'tkazish rejalashtirilgan. Ishtirokchilarga standart tish yuvish usuli o'rgatiladi va bir xil tish pastasi tavsiya etiladi. Tadqiqot davomida har bir talabani 1, 3 va 6 oyda stomatologik ko'rikdan o'tkazish nazarda tutilgan.

Tekshirish davomida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. PMA indeksi – milklarning yallig'lanish darajasini aniqlash.
2. Kariyes jadalligi ko'rsatkichi – yangi tish karieslarining paydo bo'lish tezligini aniqlash.
3. Grin-Vermilion indeksi – og'iz gigiyenasi holatini aniqlashda foydalaniladigan klassik usul.
4. Og'iz gigiyenasi samaradorligi indeksi – umumiy tish gigiyenasi darajasini baholash.

Kutilayotgan natijalar

Ushbu tadqiqot orqali turli tish cho'tkalarining samaradorligi klinik jihatdan farqlanadi va tish gigiyenasini yaxshilash uchun qimmatli tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, tadqiqot stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha yangi bilimlar taqdim etadi va mavjud adabiyotlarni to'ldiradi.

Xulosa

Turli yoshdagi va holatdagi insonlar uchun mos tish cho'tkasini aniqlash, uning samaradorligini tekshirish va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda stomatologiya sohasida dolzarb masaladir. Tadqiqot natijalari stomatologlar va bemorlar uchun foydali qo'llanma bo'lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Yoshino Kaneyasu. The effectiveness of toothbrush replacement intervals. Tokyo Medical Journal, 2024.
2. Emily Peralta. Parent influence on child dental hygiene practices. American Dental Research, 2024.
3. Smita Patil, Prashant Patil. Comparative study of toothbrushing methods in children aged 6-8. Indian Journal of Pediatric Dentistry, 2014.
4. Shreya Kolvenkar. Evaluation of manual vs. automated toothbrush efficiency in disabled patients. Journal of Clinical Dentistry, 2022.
5. Bader JD, Shugars DA. A systematic review of oral hygiene and prevention of caries. Journal of Dental Research, 2013.
6. Fejerskov O, Kidd E. Dental caries: The disease and its clinical management. Wiley-Blackwell, 2015.